



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2025



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI TO'PLAMI

2-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



IJODIY DARSLAR ORQALI O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASH VA
TASHABBUSKORLIKNI OSHIRISH

Zoyirova Dilfuza Xayriddinovna

Samarqand Davlat chet tillari instituti
Narpay Xorijiy tillar fakulteti ilmy rahbari

Kosbayeva Asemoy Serik qizi

Samarqand Davlat chet tillari instituti
Narpay Xorijiy tillar fakulteti talabasi

Murtabayeva Ulzada Abu qizi

Samarqand Davlat chet tillari instituti
Narpay Xorijiy tillar fakulteti talabasi

"O'quvchini o'rgatish emas, o'ylashga o'rgatish — haqiqiy ustozlikdir."

ANNOTATSIYA

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarga yechim topish va tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Avvalo, biz ijodiy darslar "nima" va ular "qay tarzda" olib borilishi haqida tushuncha hosil qilib olishimiz kerak. Bu usulda o'qitish jarayonida ijodkorlikni uyg'otish, talabalarda mustaqil va estetik fikrlashni rivojlantirish usullar tahlillarini ko'rib chiqamiz.

"Yuqoridagi fikrga ko'ra, o'quvchilar mustaqil fikrlarini bayon eta olishi o'ziga bog'liq ya'ni ularning fikr doirasiga qaraladi." -deb hisoblanadi. Bu aksincha, o'quvchilarning shaxsiy fikr yuritishi tabiiy, ammo buni atrofdagilarga yetkazib bera olishi-chi? Bu ijodiy yondashuvdagi darslarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ijodiy yondashuv asosida darslarni olib borish, ham muvaffaqiyatda ham fikrlashda - samarali yo'l sifatida e'tirof etilmoqda. Ijodiy darslarda o'qituvchi o'quvchini erkin fikrlashga, o'z nuqtai nazarini bildirishga, yangi g'oyalarni ilgari surishga undaydi.

Bu muhit davomida o'zini erkin his qila olgan o'quvchilar, albatta o'z shaxsiy fikrini mustaqil bildiradi. Hozirda darslarni faqatgina ma'lumot berish orqali o'quvchilarni qoniqtirib bo'lmay qoldi. Shu bois ko'pchilik metodist o'qituvchilar o'z darslarida turli o'yin va foydali usullar orqali o'tishadi.

KALIT SO'Z: Pedagogik texnologiya; innovatsion yondashuv; mustaqil fikrlash; axborot-kommunikatsion usul; pedagogik mahorat; faoliyatga moyillik; ta'lim-tarbiya YUNESKO; AKT loyihasi;



KIRISH. Ta'limda yangicha yondashuvlarni qabul qilishga ko'mak beruvchi bosh omillardan biri mana shu taklif qilinayotgan usullar o'z ustuvorliklariga ega bo'lib, innovatsion yondashuv avvalgisidan ancha afzal ekanini to'liq anglashdan iboratdir. Ushbu holatda uzluksiz tarzda, amaliy tatbiq etish sayin u yoki boshqa usulning samaraliligini tahlil qilib borish kerak bo'ladi. Bunda yutuq va kamchiliklarni, albatta, ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalarning bu kabi monitoringini olib borish o'quv jarayoniga o'qitishning eng samarali usullarini tatbiq qilish va ularni keng yoyishga turtki beradi. Bugunda jahonning ko'plab mamlakatlari o'qituvchilar tomonidan axborot-kommunikativ usullarni innovatsion qo'llaniladigan takomillashtirish bo'yicha YUNESKOning tavsiyalariga amal qilmoqda. Mazkur tavsiyalarning maqsadi qo'llanilayotgan o'qitish usullarini yanada mukammal qilish. Chunki ular mehnat resurslari sifatini, ta'lim jarayonining samaraliligini, yangi avlod kadrlarini tayyorlashni ko'tarishga yordam berishga, oxir-oqibatda esa har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limda yangicha yondashuvlarni qabul qilishga ko'mak beruvchi bosh omillardan biri mana shu taklif qilinayotgan usullar o'z ustuvorliklariga ega bo'lib, innovatsion yondashuv avvalgisidan ancha afzal ekanini to'liq anglashdan iboratdir. Ushbu holatda uzluksiz tarzda, amaliy tatbiq etish sayin u yoki boshqa usulning samaraliligini tahlil qilib borish kerak bo'ladi. Bunda yutuq va kamchiliklarni, albatta, ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalarning bu kabi monitoringini olib borish o'quv jarayoniga o'qitishning eng samarali usullarini tatbiq qilish va ularni keng yoyishga turtki beradi.

Bugunda jahonning ko'plab mamlakatlari o'qituvchilar tomonidan axborot-kommunikativ usullarni innovatsion qo'llaniladigan takomillashtirish bo'yicha YUNESKOning tavsiyalariga amal qilmoqda. Mazkur tavsiyalarning maqsadi qo'llanilayotgan o'qitish usullarini yanada mukammal qilish. Chunki ular mehnat resurslari sifatini, ta'lim jarayonining samaraliligini, yangi avlod kadrlarini tayyorlashni ko'tarishga yordam berishga, oxir-oqibatda esa har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

MAQSAD VA VAZIFLAR

Zamonaviy oliy ta'limni elektron ta'lim vositalarisiz va turli masofaviy ta'lim texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jahon amaliyoti o'qitish jarayonining metodologiyasiga elektron texnologiyalarni faol tatbiq etmoqda. Ko'plab ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoniga AKTni faol tatbiq qilish



kuzatilmoqda hamda ularni ta'lim jarayonida amaliy qo'llash bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish yuzasidan allaqachon ishlar olib borilmoqda, shuningdek, o'quv-ta'lim resurslarining elektron bazasini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

XXI asrga kelib o'qitish tizimi ta'limga bo'lgan an'anaviy qarashlarni zamon talabidan kelib chiqqan holda, yangi nazar bilan ko'rib chiqishni va yangicha yondashuv ko'nikmalarini egallash masalalarini talab etmoqda. Bu esa, o'z o'rnida, innovatsiyalarni faol tatbiq qilish, ilm-fan va ishlab chiqarishni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni taqozo etmoqda.

Ta'lim bu kelajagimiz, demak, ta'lim tizimiga yondashuvni qaytadan ko'rib chiqib, an'anaviy o'qitish modeliga yangi o'qitish standartlarini kiritish zarur. Davr talablaridan kelib chiqqan holda, texnologiyalar o'qitish jarayonining bosh katalizatoriga aylanishi kerak.

XULOSA

Ta'lim tizimini to'liq isloh qilish murakkab jarayon bo'lib, tashqi olam bilan uzluksiz tarzda o'zaro munosabatda bo'lishni talab qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchilar va ta'lim beruvchilardan pedagogik mahorat ham talab qilinmoqda. Pedagogik mahorat - bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talabalarda (o'quvchilarda) dunyo- qarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon, eski usuldagi barchaga mal'um bo'lib qolgan bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq, zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi-maxsus bilimlar va malakalar-bolalarni kuzatish, ularning o'sishdagi muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo'llari hamda usullarini aniqlash, o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Madatov Ilhom Yusup o'g'li, OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARI MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY



- TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH, Monografiya, Andijon-2025, 161 b.
2. Pedagogika, O. M. Asqarov, M. Xayitboyev, M. S. Nishonov, Toshkent-2008, 278 b
 3. Mavlonova, R. A. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim. Toshkent: Fan.
 4. Khodjayev, A. (2021). Modern Teaching Methods and Their Effect on Education Quality. International Journal of Education and Practice, 9(5), 234–241.
 5. <https://cyberleninka.ru>
 6. <https://bestpublication.org>

